Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНА	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH.....	1475
Jumayev Olimjon Sadulloevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIY TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI

E.U. Azizov

IIV Akademiyasi Tashkiliy-shtab faoliyati kafedrası professori v.b.,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

X.D. Sarabekov

IIV Akademiyasi Tashkiliy-shtab faoliyati kafedrası dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada ichki ishlar organlarida ijro intizomini mustahkamlashning konstitutsiyaviy kafolatlari tahlil qilingan bo'lib, unda ijro intizomining huquqiy asoslari, davlat organlari mas'uliyati, qonun ustuvorligi, fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlash kabi Konstitutsiyadagi asosiy normalar bilan bog'liq holda yoritilgan. Shuningdek, amaldagi mexanizmlar sifatida ichki xizmat tekshiruvlar, raqamli monitoring va nazorat, kadrlarning xizmat va jangovar tayyorgarlik darajasi va javobgarlik tizimi kabi vositalarning samaradorligi o'rganilgan. Tadqiqot natijasida tizimda mavjud muammolar ko'rsatilib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari, ijro intizomi, konstitutsiyaviy kafolatlar, qonun ustuvorligi, inson huquqlari, davlat nazorati tizimi, kasbiy kompetensiya.

Abstract. The article examines the constitutional foundations of ensuring performance discipline in the Department of Internal Affairs. The provisions of the Constitution concerning the rule of law, the responsibility of state bodies, and guarantees of citizens' rights and freedoms are analyzed. Practical mechanisms for ensuring discipline are considered: internal internal checks, digital control systems, personnel training and a system of responsibility. Based on the research, the conclusions and practical recommendations for improving performance discipline in law enforcement agencies are presented.

Key words: internal affairs bodies, executive discipline, constitutional guarantees, rule of law, state control, professional competence.

Аннотация. В статье рассматриваются конституционные основы обеспечения исполнительской дисциплины в ОВД. Анализируются положения Конституции, касающиеся верховенства закона, ответственности государственных органов, гарантий прав и свобод граждан. Рассмотрены практические механизмы обеспечения дисциплины: внутренние служебные проверки, цифровые системы контроля, подготовка кадров и система ответственности. На основе исследования представлены выводы и практические рекомендации по совершенствованию исполнительской дисциплины в органах внутренних дел.

Ключевые слова: органы внутренних дел, исполнительская дисциплина, конституционные гарантии, верховенство закона, государственный контроль, профессиональная компетентность.

KIRISH

Ichki ishlar organlarida ijro intizomini mustahkamlash davlat hokimiyati va boshqaruvi samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ijro intizomi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning ajralmas sharti bo'lib, ichki ishlar organlari faoliyatining qonuniylik, shaffoflik hamda javobgarlik tamoyillariga asoslanishini taqozo etadi. Mazkur tizimda ijro intizomining yetarli darajada ta'minlanmasligi xizmat vazifalarini lozim darajada bajarilmasligiga, fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishiga hamda davlat organlariga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ichki ishlar organlari faoliyatida ijro intizomini mustahkamlashning asosiy konstitutsiyaviy kafolatlari belgilab beradi. Xususan, Konstitutsiyada qonun ustuvorligi, davlat organlari



va mansabdor shaxslarning qonun oldida javobgarligi, inson huquq va erkinliklarining oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyatida ijro intizomiga qat'iy rioya etilishini talab qiladi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaviy normalar ijro intizomini ta'minlashda tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish uchun mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot ichki ishlar organlarida ijro intizomini mustahkamlashning konstitutsiyaviy kafolatlarini nazariy-huquqiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, Konstitutsiya normalarining mazkur sohadagi amaliy ahamiyatini ochib berishni hamda ijro intizomini yanada kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishni maqsad qilib qo'yadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki ishlar organlarida ijro intizomini mustahkamlash masalasi huquqshunos olimlar tomonidan konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq hamda davlat boshqaruvi nazariyasi doirasida keng tadqiq etilgan. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy manbalarni shartli ravishda normativ-huquqiy asoslar, nazariy-huquqiy qarashlar va amaliy-tahliliy tadqiqotlarga ajratish mumkin.

Birinchidan, ijro intizomini mustahkamlashning konstitutsiyaviy kafolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan asosiy tamoyillarga tayanadi. Konstitutsiyada qonun ustuvorligi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning Konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz rioya etish majburiyati belgilangan bo'lib, bu holat ichki ishlar organlari faoliyatida ijro intizomining huquqiy poydevorini tashkil etadi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023). Ushbu normalar ijro intizomini faqat tashkiliy talab sifatida emas, balki konstitutsiyaviy majburiyat sifatida talqin etishga imkon beradi.

Ikkinchidan, ma'muriy huquq sohasidagi ilmiy adabiyotlarda ijro intizomi davlat boshqaruvining samaradorligini ta'minlovchi muhim institut sifatida baholanadi. Xususan, X.T. Odilqoriyev va B.E. Qosimovlarning ilmiy asarlarida davlat organlarida xizmat intizomi, mansabdor shaxslarning javobgarligi hamda qonuniyligni ta'minlash masalalari batafsil yoritilgan bo'lib, ichki ishlar organlari faoliyatida ijro intizomining huquqiy mexanizmlarini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi (Odilqoriyev X.T., Qosimov B.E., 2010).

Uchinchidan, ichki ishlar organlari faoliyatiga bevosita bag'ishlangan tadqiqotlarda ijro intizomi xizmat intizomining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. A.X. Saidov va Sh.X. Fayziyevlarning ishlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida konstitutsiyaviy tamoyillarning amaliy ahamiyati, xodimlarning huquqiy ong va madaniyatini oshirish orqali ijro intizomini mustahkamlash masalalari tahlil qilingan (Saidov A.X., Fayziyev Sh.X., 2015).

Shuningdek, so'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy maqolalarda ichki ishlar organlarida ijro intizomini kuchaytirishda raqamlashtirish, ichki nazorat va jamoatchilik nazoratining roli alohida ta'kidlanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan isloh qilishga qaratilgan farmon va qarorlari muhim manba hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF va PQ hujjatlari).

Umuman olganda, adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlarida ijro intizomini mustahkamlash konstitutsiyaviy normalar, ma'muriy-huquqiy mexanizmlar va amaliy boshqaruv vositalarining uyg'unlashuvi asosida ta'minlanadi. Mavjud ilmiy tadqiqotlar mazkur masalaning nazariy asoslarini yoritib bergan bo'lsa-da, ijro intizomini mustahkamlashning aynan konstitutsiyaviy kafolatlarini tizimli tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ichki ishlar organlarida ijro intizomini mustahkamlashning konstitutsiyaviy kafolatlarini chuqur va har tomonlama o'rganish maqsad qilingan bo'lib, tadqiqot metodologiyasi huquqiy hodisa sifatida ijro intizomining mazmuni, shakllanish jarayonlari hamda uni ta'minlash mexanizmlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida dialektik yondashuv asosida ijro intizomining rivojlanishi, uning ichki ishlar organlari faoliyatidagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, konstitutsiyaviy kafolatlar bilan o'zaro uzviy bog'liqligi tahlil qilindi. Tizimli-tuzilmaviy tahlil usuli orqali ichki ishlar organlarida ijro intizomini ta'minlovchi subyektlar, ularning vakolatlari, nazorat va javobgarlik mexanizmlari yagona tizim sifatida ko'rib chiqildi. Formal-yuridik usul yordamida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar, Prezident farmonlari va ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni va huquqiy ahamiyati o'rganildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil orqali ijro intizomini mustahkamlash borasida milliy huquqiy mexanizmlar xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirilib, ilg'or yondashuvlar aniqlandi. Shuningdek, mantiqiy tahlil va umumlashtirish usullari asosida nazariy qarashlar hamda amaliy holatlar tizimlashtirildi, empirik usullar yordamida esa ichki xizmat tekshiruvlari, intizomiy javobgarlik amaliyoti va raqamli monitoring tizimlarining samaradorligi baholanib, tadqiqot yakunida ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.



TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurilishi sharoitida davlat organlari faoliyatining samaradorligi ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Xususan, ichki ishlar organlarida ijro intizomini ta'minlash va uni mustahkamlash jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda huquqbuzarliklarni oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ijro intizomi faqat tashkiliy choralar emas, balki Konstitutsiyada belgilab berilgan qonun ustuvorligi, davlat organlari mas'uliyati va fuqarolar huquqlarini ta'minlash prinsiplari bilan chambarchas bog'liqdir.

Aytish joizki, Konstitutsiyaning nufuzi va ijtimoiy qadr-qimmati yillar o'tgani sayin yuksalib bormoqda. Bunga asosiy sabab, Konstitutsiyamizdagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Asosiy Qonunimiz matni qariyb 65 foizga, inson huquqlariga oid normalar soni 3,5 barobarga oshdi hamda inson huquqi va erkinliklariga oid normalar esa Bosh qomusimizning qariyb 50 foizdan ortig'ini tashkil etdi[1].

Yangi O'zbekiston sharoitida inson huquq va erkinliklarining kafolatli himoyasini ta'minlash, butun jahon miqyosida tan olingan "Xabeas korpus" va "Miranda qoidasi" kabi institutlarning Konstitutsiyada mustahkamlanishi – bu tarixiy qadam bo'ldi.

Qonunlardagi noaniqliklarning inson foydasiga hal bo'lishi, "sukut saqlash" huquqining ilk marotaba belgilanishi, shaxsning sudlanganligi uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emasligi, advokatlar maqomi prokuror maqomiga tenglashtirilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash va ekologiyaga oid huquqlarning kafolatlanishi kabi yangi qoidalar Asosiy Qonunimizni tom ma'noda "Inson Konstitutsiyasi" deb atashga to'la imkon beradi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, xalqaro hujjatlarda qonun ustuvorligining asosiy elementlari sifatida qonun ijodkorligini shaffof, hisobdorlik va demokratik jarayonni qamrab olgan qonuniylikka asoslanishi; huquqiy aniqliq; o'zboshimchalikning taqiqlanganligi; mustaqil va xolis odil sudlovning ochiqqligi; shuningdek ma'muriy hujjatlar ustidan sud nazoratining o'rnatilganligi; inson huquqlarini hurmat qilish va kamsitmaslik hamda qonun oldida tenglik hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bobi "Konstitutsiya va qonunning ustunligi" deb nomlanib, mazkur bob Konstitutsiyamizning Asosiy prinsiplar bo'limida joylashgan. Nazariyadan ma'lumki, prinsip deganda rahbariy qoidalar nazarda tutiladi. Agar Konstitutsiyaning boshqa bo'limlari o'rtasida qandaydir tushunmovchilik kelib chiqadigan bo'lsa, masala nazariyaga ko'ra asosiy prinsiplarga tayanilib hal qilinishi kerak. Shu ma'noda qonun ustuvorligining Asosiy prinsiplar bo'limida joylashtirilganligi mamlakatimizda mazkur prinsipga alohida ahamiyat berilganidan dalolatdir[2].

Konstitutsiyaga ko'ra, 1) davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar (15-modda); 2) ushbu Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlariga, ushbu Konstitutsiyaning birinchi bo'limida nazarda tutilgan asosiy prinsip va normalarga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas (16-modda) [3].

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoev g'oya va tashabbuslari asosida Parlament, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, "Xalq – qonunlarning tom ma'noda yagona manbai va muallifi hisoblanadi" hamda "Barcha muhim qarorlar bevosita xalq bilan muloqot asosida, jamoatchilikni fikrini hisobga olgan holda qabul qilinadi" tamoyillarini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[4].

Ta'kidlash joizki, Konstitutsiyaviy islohotlar samaradorligi va umumiylikiga faqat Prezident Sh.Mirziyoevning 2021 yil 10 fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni[5], 2021 yil 31 maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori[6], shuningdek 2025 yil 25 iyuldagi "Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga[7] muvofiq takomillashtirilgan ijro intizomini nazorat qilishning tizimli mexanizmlari asosida ijro bo'lgandagina maqsadga erishiladi.

Ijro intizomi davlat boshqaruvida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida, sifatli va qonunchilik talablariga muvofiq bajarilishini ta'minlaydigan tizim bo'lib, ichki ishlar organlari faoliyatida u ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi. "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonun, ichki xizmat nizomlari, Vazirlik buyruqlari va xizmat intizomi qoidalari – ijro intizomini ta'minlashning normativ asosini tashkil etadi.

Ichki ishlar organlarida ijro intizomi nafaqat xizmat vazifalarini bajarish tartibini belgilaydi, balki xizmatchilarning huquq va burchlarini, javobgarlik mexanizmlarini, intizomiy jazolarni qo'llash tartibini ham aniqlaydi. Bu esa konstitutsiyaviy normalar bilan bog'liq holda yondashilganda yanada to'liq ma'no kasb etadi.



Ichki ishlar organlarida ijro intizomini mustahkamlashning Konstitutsiyaviy kafolatlari quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

a) Konstitutsiya va qonun ustuvorligi hamda davlat organlari mas'uliyati. Bunda Konstitutsiyada qonun ustuvorligi davlat boshqaruvining asosiy prinsiplaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan. Bu prinsip ichki ishlar organlari uchun ham majburiy bo'lib, har bir xizmatchining vazifalarni qonun asosida bajarishini talab qiladi. Qonun ustuvorligi ijro intizomining eng muhim kafolati bo'lib, har qanday me'yoriy-huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga muvofiqligini ta'minlaydi.

b) Fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashning kafolatlari. Ichki ishlar organlari faoliyatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarining ta'minlanishi ustuvor hisoblanadi. Konstitutsiyada inson qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizlik, adolatli muomala, huquqiy himoya kabi normalar mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu huquqlarni amalga oshirishda xizmatchilarning o'z xizmat majburiyatlarini to'g'ri va qat'iy tartib va intizom asosida bajarishi alohida ahamiyatga ega.

v) Davlat, parlament, sud va jamoatchilik nazoratlarining o'rnatilganligi. Konstitutsiyada davlat organlari faoliyati ustidan parlament nazoratining mavjudligi ham ijro intizomining muhim kafolati hisoblanadi. Ombudsman, prokuratura organlari va sudlar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat hamda jamoatchilik nazorati sub'ektlari nazorati ichki ishlar tizimida qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi.

g) O'zbekiston Respublikasining Prezident institutining kafolatlari. Mamlakat Prezidenti tomonidan ichki ishlar sohasida islohotlarni amalga oshirish, kadrlar siyosati, raqamlashtirish va jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid farmonlar va qarorlar ijro intizomiga qaratilgan konstitutsiyaviy kafolatlarni kuchaytiradi.

Ilmiy tahlillarga ko'ra ichki ishlar organlarida ijro intizomi samaradorligi quyidagi amaliy mexanizmlar orqali ta'minlanadi:

1. Ichki ishlar organlarining ichki xizmat tekshiruvlari va intizom buzilishlarning oldini tizimlari[8]. Bunda, ichki shaxsiy xavfsizlik bo'linmalari, xizmat tekshiruvlari va intizomiy kengashlar xizmat intizomini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

2. Ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy va ma'naviy tayyorgarlik darajasi[9]. Ushbu yo'nalishdagi amalga oshirilgan ishlar xodim va xizmatchilarning huquqiy savodxonligini oshirish, etika va xizmat madaniyatiga oid o'quvlar intizomni kuchaytiradi hamda fuqarolarning tinchligi va mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash uchun har qanday huquqbuzarlikka qarshi kurashishda o'z jonini ayamaydigan, vatanparvarlik, fidoyilik, sadoqat va halollik fazilatlariga ega xodimlarni shakllantiradi.

3. Ichki ishlar organlari tizimini raqamli transformatsiya qilish va nazorat tizimlari[10]. Mazkur mexanizmlarni joriy etilishi natijasida: a) ichki ishlar organlarining raqamli ekotizimini zamon talablariga mutanosib ravishda maqsadli raqamli yechimlar asosida yangi bosqichga olib chiqish, jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasiga sun'iy intellekt texnologiyalarini keng tatbiq etish, "markaz – hudud – mahalla" yagona texnologik yondashuvini joriy etish va axborot makonida raqamlashtirish jarayonlari natijadorligini yanada oshirishga; b) hujjatlar aylanishining elektron shaklga o'tkazilishi va korrupsiya holatlarning omillarini aniqlovchi integratsiyalashgan dasturlar samaradorligini oshirish imkonini beradi.

4. Moddiy va ma'naviy rag'batlantirish amaliyoti. Shu o'rinda aytish joizki, samarali, ayniqsa uzoq yillar ishlagan xodimlarni ustuvorlik asosida rag'batlantirish tizimining joriy etilishi, lavozimda o'sish imkoniyatlari motivatsiyani kuchaytiradi, kadrlar qo'nimssizligiga barham beradi, ustoz-shogirt an'anasini ommalashtiradi va ijro intizomini barqarorligini ta'minlaydi.

5. Ijro etish jarayonida korrupsion omillarga murosasizlik. Ma'lumki, davlat organlari tomonidan o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni belgilangan tartib va qoidalarga asosan rioya etgan holda sifatli va samarali ijro etishning omillaridan biri, bu davlat xizmatchilari tomonidan o'z mansab yoki xizmat mavqesidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanmaslik hisoblanadi. Barchamizga ma'lumki, korrupsiya orqali qarorlarni qabul qilish va amalga oshirishni tezlashtirish, vaqtni tejash, kam maoshni qoplashi kabi xayoliy afzalliklar haqidagi ayrim qarashlar jamiyatni axloqiy tanazzulga olib keladi hamda sha'n, qadr-qimmat va adolat haqidagi umumbashariy g'oyalar va taassurotlarni yo'q qilishga sabab bo'ladi[11].

O'rganishlarga ko'ra, hozirgi kunda qo'yidagi tizimda ijro intizomi bilan bog'liq ayrim muammolar mavjud bo'lib, bular ba'zi hududlarda kadrlar malakasi va huquqiy savodxonlikning past darajadali[12], byurokratik to'siqlarning ko'pligi natijasida vazifalarni bajarishdagi kechiktirishlarni keltirib chiqarayotganligi, raqamlashtirish jarayoni bir xil sur'atda kechmayotganligi, ba'zi hollarda qonunchilik hujjatlari ijrosini monitoring va nazorat mexanizmlari yetarlicha samarali emasligi.

Shuni alohida ta'kitlash joizki, ichki ishlar organlarida ijro intizomini mustahkamlash sohasidagi islohotlar samarasi: birinchidan, Konstitutsiyada belgilangan davlat organlari mas'uliyati prinsipini amaliy mexanizmlar bilan kuchaytirishni, ikkinchidan, ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy bilimlarini muntazam oshirishga qaratilgan o'quv dasturlari va seminar-treninglarni takomillashtirishni, uchinchidan, xizmat faoliyatini



raqamlashtirishni tezlashtirish va yagona elektron nazorat platformasini joriy etishni; to'rtinchidan, parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ommaviy axborot vositalarida ochiq hisobot tizimlarini joriy etishni; beshinchidan, davlat idoralarida ijro intizomini buzganlik uchun javobgarlik mexanizmlarini aniq va shaffof qonun asosida takomillashtirishni talab qiladi.

Ichki ishlar organlarida ijro intizomini mustahkamlashning konstitutsiyaviy kafolatlari: xorijiy tajribalar:

1. Germaniya tajribasi:

Germaniyada ichki ishlar organlarida ijro intizomi Asosiy qonun (Grundgesetz) normalari bilan kafolatlangan.

Unda huquqiy davlat (Rechtsstaat) prinsipi asosiy o'rinni egallaydi.

Asosiy jihatlar:

ijro intizomi qonun ustuvorligi tamoyiliga qat'iy bog'langan;

har bir davlat xizmatchisi, jumladan politsiya xodimi, konstitutsiyaga va qonunlarga rioya etishi shart;

xizmat intizomini buzgan mansabdor shaxslar ustidan ma'muriy sud nazorati mavjud;

intizomiy javobgarlik Bundesdisziplinargesetz bilan tartibga solinadi.

Bu tajriba ijro intizomini ta'minlashda konstitutsiyaviy qonuniylik va sud nazoratining ustuvorligini ko'rsatadi.

2. Fransiya tajribasi:

Fransiyada ichki ishlar organlari faoliyati 1958-yilgi Konstitutsiya hamda ma'muriy huquq normalari asosida amalga oshiriladi.

Asosiy jihatlar:

davlat xizmatida ijro intizomi va bo'ysunish majburiyati belgilangan;

noqonuniy buyruqni bajarmaslik huquqi konstitutsiyaviy jihatdan e'tirof etilgan;

ichki nazorat va inspeksiya organlari (IGPN) faoliyat yuritadi;

intizomiy choralarni qo'llashda proportsionallik va inson huquqlari kafolatlari ta'minlanadi.

Fransiya tajribasi ijro intizomini intizom va huquqiy muvozanat asosida mustahkamlashni nazarda tutadi.

3. AQSh tajribasi

AQShda politsiya organlari faoliyati Konstitutsiya, federal va shtat qonunlari bilan tartibga solinadi.

Asosiy jihatlar:

politsiya faoliyati ustidan konstitutsiyaviy sud nazorati mavjud;

xizmat intizomi sud pretsedentlari orqali shakllanadi;

har bir politsiya departamentida Internal Affairs bo'linmalari faoliyat yuritadi;

ijro intizomini ta'minlashda jamoatchilik nazorati muhim o'rin tutadi.

Mazkur tajriba ijro intizomini ochiqlik va hisobdorlik orqali ta'minlashga qaratilgan.

4. Yaponiya tajribasi

Yaponiyada ichki ishlar va politsiya organlari faoliyati Konstitutsiya hamda "Politsiya to'g'risida"gi qonun asosida tashkil etilgan.

Asosiy jihatlar:

markazlashgan boshqaruv va qat'iy xizmat intizomi;

xodimlarning axloqiy kodeksi va xizmat madaniyatiga alohida e'tibor;

intizom buzilishining oldini olishga qaratilgan profilaktik mexanizmlar;

ichki audit va doimiy monitoring tizimi.

Yaponiya tajribasi ijro intizomini axloqiy mas'uliyat va profilaktika orqali mustahkamlashni ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda ichki ishlar organlarida ijro intizomini mustahkamlash – davlat boshqaruvi samaradorligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu jarayonning asosiy huquqiy tayanchi esa Konstitutsiyadir. Konstitutsiyaviy normalar qonun ustuvorligini ta'minlab, fuqarolar huquqlarini himoya qilgan holda ichki ishlar organlari faoliyatining to'g'ri va samarali yo'nalishda rivojlanishini kafolatlaydi. Shu bois konstitutsiyaviy kafolatlar asosida ijro intizomini kuchaytirish shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini to'liq ro'yobga chiqarishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar organlari faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash maqsadida Konstitutsiyada belgilangan qonun ustuvorligi va mansabdor shaxslarning javobgarligi tamoyillarini idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarda aniq va batafsil mexanizmlar orqali mustahkamlash lozi m.

Ijro intizomini ta'minlashda ichki nazorat tizimini konstitutsiyaviy kafolatlar asosida qayta ko'rib chiqish, xususan, xizmat tekshiruvlari va intizomiy javobgarlik choralarni qo'llashda inson huquqlariga rioya etilishini qat'iy ta'minlash zarur.

Ichki ishlar organlari xodimlarining konstitutsiyaviy-huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan doimiy o'quv mashg'ulotlarini joriy etish orqali ijro intizomini huquqiy ong va mas'uliyat bilan uzviy bog'lash maqsadga muvofiq.



Ijro intizomini mustahkamlash jarayonida raqamli monitoring va elektron nazorat mexanizmlarini keng joriy etish, bu orqali topshiriqlar ijrosi ustidan shaffof va obyektiv nazoratni ta'minlash tavsiya etiladi.

Jamoatchilik va parlament nazoratining konstitutsiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali ichki ishlar organlari faoliyatida ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirish, bu esa ijro intizomining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Odilqoriyev X.T., Qosimov B.E. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2010.
2. Saidov A.X., Fayziyev Sh.X. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2015.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ichki ishlar organlari faoliyatiga oid farmon va qarorlari.
4. Ҳақимов Р. Инсон қадри — янги таҳрирдаги Конституция фалсафасининг ҳаётий ифодаси // <https://parliament.gov.uz/uz/news/inson-qadri-yangi-tahriirdagi-konstitutsiya-falsafasining-hayotiy-ifodasi> (мурожаат қилинган сана: 04.12.2025 й.).
5. Миракулов М. Конституция ва қонуннинг устунлиги // Электрон манба: https://constitution.uz/uz/pages/Konstitutsiya_ustunligi (мурожаат қилинган сана: 04.12.2025 й.).
6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, 2023. – Б. 7–8.
7. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси / Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. – Б. 69.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қонунчилик ҳужжатлари ижросини самарали ташкил этишда давлат бошқаруви органлари ва маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари раҳбарларининг шахсий жавобгарлигини кучайтиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2021 йил 10 февральдаги ПФ–6166-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/5279413>
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ijro.gov.uz” ижро интизومي идоралараро ягона электрон тизимининг самарали фаолият кўрсатишини таъминлашга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2021 йил 31 майдаги ПҚ–5132-сон қарори // <https://lex.uz/uz/docs/5439350>
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат органлари ва ташкилотларда ижро интизомини янада мустаҳкамлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2025 йил 28 июндаги ПФ–117-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/7645672>
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ички ишлар органларини халқчил, профессионал тузилмага айлантириш ва аҳоли билан янада яқин ҳамкорликда ишлашга йўналтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2023 йил 20 январдаги ПҚ–10-сон қарори // <https://lex.uz/uz/docs/6364837>
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2021 йил 2 апрелдаги ПҚ–5050-сон қарори // <https://lex.uz/ru/docs/5353841>
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ички ишлар органлари тизимини рақамли трансформация қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2025 йил 30 апрелдаги ПҚ–155-сон қарори // <https://www.lex.uz/docs/7511360>
14. Сафаров Т. Давлат органларида коррупциявий омилларни бартараф этиш – соҳа тараққиётининг муҳим омили // Тошкент давлат юридик университети. Юридик фанлар ахборотномаси, махсус сон. – Тошкент, 2020. – Б. 233–234.
15. Тошқулов А. Масъулият ва ижро интизومي – ислохотлар гарови // Strategy of Uzbekistan, №03 (2021). – ISSN 2181-2535. – Б. 50–57.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
